

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



“TIQXMMI”
MILLIY TADQIQOD UNIVERSITETI

Yer resurslari va kadastr fakulteti

Fan: Bino inshootlar davlat kadastr

5-Mavzu: Hidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritilishi

Ma'ruza



Ashurov A

TOSHKENT 2023

MAVZU: HAMDO'STLIK MAMLAKATLARIDA GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI DAVLAT KADASTRINI YURITILISHI

Reja:

1. Qo'shni davlatlarda gidrotexnika inshootlari davlat kadastrining yuritilishi
2. Rivojlangan davlatlarda gidrotexnika inshootlari davlat kadastrining yuritilishi
3. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastri yuritilishi
4. Foydalanilgan adabiyotlar

- Dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, Osiyoda ham gidrotexnika chizmalarining davlat kadastri mavjud. Har bir mamlakatda bunday chizmalarni yozib olish va saqlash uchun o'z tizimi mavjud.



- Masalan, Xitoyda gidrotexnika loyihalari Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tartibga solinadi va Davlat Hidrologiya va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlar bazasida saqlanadi.
- Hindistonda gidroloyihalar Markaziy suv komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi va Milliy gidroloyiha inventarizatsiyasida saqlanadi.



- Yaponiyada Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi vazirligi gidrotexnik infratuzilmalarni boshqarish uchun mas‘ul bo‘lib, loyiha ma‘lumotlari Yer va transport milliy agentligi ma‘lumotlar bazasida saqlanadi.
- Shunday qilib, har bir Osiyo davlati tegishli davlat organlari tomonidan boshqariladigan o‘zining gidrotexnik chizmalarini hisobga olish tizimiga ega.



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI KADASTRI

- "Davlat kadastrlari to`g`risida"gi va "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq inshootlarning texnik holatini hisobga olish va baholash, ularning bexatar ishlashini ta'minlash maqsadida yuritiladi.
- 2. Hidrotexnika inshootlari kadastri inshootning tabiiy shart-sharoitlari, joylashgan o`rni, texnik, sifat va miqdor tavsifnomalari, xizmat qilish muddati, egasi to`g`risidagi va boshqa ma'lumotlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar tizimi va hujjatlardan iborat bo`ladi.



VAKOLATLI ORGANLAR

I, II, III sinfga mansub va davlat mulki bo`lgan, shuningdek, respublika, mintaqa, suv xo`jaligi va energetika tizimiga kiruvchi xavf darajasi yuqori bo`lgan gidrotexnika inshootlarining kadastri "Davsuvxo`jaliknazorat" davlat inspeksiyasi tomonidan, III sinfdan past bo`lgan boshqa gidrotexnika inshootlari bo`yicha - inshootlarning mansubligiga qarab O`zbekiston Respublikasi Suv xo`jaligi vazirligi, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ, "O`zbekgidroenergo" AJ va boshqa tashkilotlar tomonidan yuritiladi.



Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish yuklangan organlar gidrotexnika inshootlarining texnik holati va xavfsizligi ustidan nazorat (monitoring)ni ta'minlaydilar.



Davlat mulki bo`lgan gidrotexnika inshootlari, shuningdek korxonalarining respublika va mintaqalar suv xo`jaligi va energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlari Kadastr ob'ekti hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlari kadastr inshootlarning texnik holatini har tomonlama o`rganish va baholash, sifat va miqdor tavsifnomalarini va foydalanish darajasini hisobga olish maqsadida yuritiladi.



Ma'lumotlarni ishlab chiqish, turkumlash, saqlash, yangilash va ob'ekt haqida axborot taqdim etish texnologiyasini takomillashtirish gidrotexnika inshootlari kadastrining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lish xavfini tug'diruvchi gidrotexnika inshootlarini qamrab olish, yuritish uslublarining yagonaligi, kadastr axborotlarining haqqoniyligi gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi.



- Hidrotexnika inshootlari kadastrı manfaatdor organlarnı ehtımol bo`lgan avariya larning oldını olish maqsadıda gidrotexnika inshootlari xavfsızlıgı, foydalanıshnı to`g`rı tashkil etish, ularnıng texnik holatını baholash to`g`rısidagı axborotlar bilan ta`minlash uchun mo`ljallangan.




- **Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish topogeodeziya qidiruvlarini, gidrologiya, geologiya, gidrogeologiya, geofizika, naturada kuzatishlar va boshqa maxsus tadqiqotlar, shuningdek gidrotexnika inshootlarini maxsus rees-trda ro`yxatdan o`tkazish bilan ta'minlanadi.**
- **Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish bo`yicha ishlar davlat byudjetidan mablag` bilan ta'minlanadi.**



Design of Hydraulic Structures



BTC109007



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- **ВСЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА**
- ЎзР Конунчилиги / Ер ва бошқа табиий ресурслар. Атроф-муҳит муҳофазаси / Сув, сувдан фойдаланиш ва сув хўжалиги / Сув хўжалиги. Сув хўжалиги иншоотлари ва гидротехник объектлар / Гидротехника иншоотларининг кадастрини юритиш Тартиби (ЎзР ВМ 16.11.1999 й. 499-сон қарорига 2-илова)
- Lex.uz internet sayti

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT !

